

MEHNATKASHLAR MANFAATLARI KASABA UYUSHMALARI HIMOYASIDA

Axmedov Sherzod Shamsiddinovich

“Olmaliq KMK” AJ Nodir metallar va qattiq qotishmalar

Ilmiy ishlab chiqarish Birlashmasi

kasaba uyushma qo`mitasi raisi

Annotasiya: *Mamlakatimizda xalqimiz farovonligini ko`zlab olib borilayotgan keng ko`lamli ishlarning amalga oshirilishini kasaba uyushmalarisiz tasavvur qilib bo`lmaydi, chunki, tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritayotgan mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish orqali kasaba uyushmalari o`z a`zolarini jamiyatimizdagi o`rnini mustahkamlashga hamda ma`naviy qo`llab-quvvatlanishiga, ertangi hayotga dadil qadam bosishlariga ko`makdosh bo`ladilar.*

Kalit so`zlar: *kasaba uyushmasi, tashkilot, qonun, mehnat, jamoat birlashmalari.*

KIRISH

Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar, inson manfaatlarini ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlar zahirida xalqimiz turmush darajasini oshirish, odamlar ertaga emas, bugun yaxshi yashashini va farovonligini ta'minlash kabi ezgu maqsadlar mujassamdir. Bunda kasaba uyushmalari faoliyatining ham salmoqli hissi bor. Kasaba uyushmasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to'g'risida”gi qonuni, “Jamoat birlashmalari to'g'risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida”gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari Federatsiyasi local hujjatlar va boshqa huquqiy hujjatlar asosida yuritadi. 2019-yil 6-dekabrda O'zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq, Qonunning maqsadi fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqini amalga oshirish, shuningdek, kasaba uyushmalarini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Kasaba uyushmasi – fuqarolarning o'z faoliyati yoki o'qishi turi bo'yicha umumiy kasbiy manfaatlarini bilan bog'liq bo'lgan, ularning mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida tuziladigan, o'z ustavi asosida faoliyat ko'rsatadigan ixtiyoriy jamoat birlashmasidir.

Kasaba uyushmalarining birlashmasi – xodimlarning kasbiy, mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini amalga oshirish hamda himoya qilishda harakatlarning muvofiqlashtirilishiga va birligiga erishish maqsadida tarmoqqa doir, hududiy yoki kasbiy o'ziga xoslikni hisobga oluvchi boshqa belgi bo'yicha tuziladigan ixtiyoriy birlashmadir. Mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta'lim olayotgan, o'n besh yoshga to'lgan shaxslar hech qanday tafovutsiz o'z tanloviga ko'ra va oldindan ruxsat olmay turib, ixtiyoriy ravishda kasaba uyushmalarini tuzish huquqiga, shuningdek, kasaba uyushmalariga ularning

ustavlariga rioya etish sharti bilan a'zo bo'lish huquqiga egadir. Qonuniylik, ixtiyoriylik, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish, teng huquqlilik va oshkoralik, ochiqlik Kasaba uyushmalari faoliyatining asosiy prinsiplari sirasiga kiradi.[1]

Kasaba uyushmasining asosiy maqsadi- o'z kasaba uyushmasi a'zolarining ijtimoiy-mehnat huquqlarini, shuningdek kasbiy, madaniy va ma'naviy, ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquq va qonuniy manfaatlarini ifoda etish va ahimoya qilish, amaldagi qonunchilik doirasida ularning huquqiy kafolatlarini ta'minlashdan iboratdir.[4]

Bundan tashqari, kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, bo'linmalari va boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari aholi bandligini ta'minlash, ishdan ozod etilayotgan xodimlarni himoya qilish masalalarini, shuningdek, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etish huquqiga ega. Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari insonning munosib hayot kechirishini va erkin rivojlanishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni shakllantirishda, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, turmush darajasining asosiy mezonlarini va tirikchilik uchun zarur bo'lgan narsalarning eng kam miqdorini belgilashda ishtirok etish huquqiga ega.[2]

Mehnatni muhofaza qilish sohasida Kasaba uyushmalarining quyidagi huquq va vakolatlari bor:

- aholi bandligini ta'minlash, ishdan ozod etilayotgan xodimlarni himoya qilish masalalarini, shuningdek, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etish;

- xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilib sudga da'vo arizasi, shuningdek sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilish;

- xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- davlat bandlik dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, bandlikni ta'minlash, shu jumladan yangi ish o'rinlarini tashkil qilish va mavjudlarini saqlab qolish, tashkilotlarning faoliyatini yaxshilash, xodimlarning ommaviy ravishda ishdan ozod etilishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etish;

- davlat organlaridan, ularning mansabdor shaxslaridan, ish beruvchilardan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlari, mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish masalalari yuzasidan bepul axborot olish; ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirishda va kasb kasalliklarini aniqlashda ishtirok etish;

- xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilgan hollarda ishlarni to'xtatib turish to'g'risida, shuningdek mehnatni muhofaza qilish talablarining buzilishlarini bartaraf etish haqida ish beruvchiga takliflar kiritish;

- mehnatni muhofaza qilishning holatini o'rganish, ish beruvchilarning jamoa shartnomalari va kelishuvlarida nazarda tutilgan mehnatni muhofaza qilishga doir majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish;

- davlat organlariga, ularning mansabdor shaxslariga, ish beruvchilarga, ularning birlashmalariga (ittifoqlariga, uyushmalariga) arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qiladi, ularga soʻrovlar yuboradi;

- loyihalashtirilayotgan, qurilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan va foydalanilayotgan obʻektlarida mehnat sharoitlarinihg havfsizligi ekspertizasida, shuningdek loyihalashtirilayotgan va foydalanilayotgan ishlab chiqarish vositalarining havfsizligi ekspertizasida ishtirok etish;

- tibbiy- mehnat ekspert komissiyasi majlislarida ishtirok etish;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va mehnatni muhofaza qilish masalalari boʻyicha normative-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- hodimning mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bogʻliq holda mayib boʻlishi yoki sogʻligʻiga boshqacha tarzda shikast etkazilishi tufayli etkazilgan zararining oʻrnini qoplash hamda xodimlarning sogʻligʻi va mehnatini muhofaza qilishga boʻlgan huquqlari kamsitilgan boshqa hollarda xodimning huquqini himoya qilib sudga murojaa qilish huquqiga ega.

Mehnat nizolarini koʻrib chiqishda hodimlarning manfaatlarini har qanday tashkilotda, korxonada tuzilgan yakka tartibdagi mehnat nizolari komissiyasi aʼzosi sifatida himoyalaydi.[3]

XULOSA

Koʻrib turganimizdek kasaba uyushmalari mehnatkashlarning har jabhada vakili va himoyachisi sifatida gavdalanadi.

Bir soʻz bilan aytganda, farovon hayotimizni taʼminlash va haq-huquqlarimizni taʼminlashda kasaba uyushmasining oʻrni va ahamiyati beqiyosdir. Ish jarayonida xodimlar duch keladigan turli koʻngilsiz vaziyatlar xodimning ruhiy holatiga ham, mehnat unumdorligiga ham salbiy taʼsir oʻtkazmay qolmaydi. Bunday vaziyatlarda xodimning ogʻirini yengil qilish, uni ijtimoiy himoyalash vazifasi kasaba uyushmasi zimmasidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari togʻrisida qonun [1]
2. Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisida qonun. [2]
3. Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
4. “Olmaliq KMK” AJ xodimlari kasaba uyushmasi ustavi.